

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K:658:01:658

YO‘LDASHOVA GAVHAR XUSNITDINOVNA

**KOMPANIYALARDA KORPORATIV BOSHQARUV SIFATINI
OSHIRISH**

08.00.13 - Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari
doktori, professor M.P.Eshov**

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB KOMPANIYALAR FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1§ Korporativ boshqaruvning mohiyati va uning asosiy jihatlari.....	12
1.2§ Korporativ boshqaruv sifatini oshirishning konseptual asoslari	21
1.3§ O‘zbekiston Respublikasi kompaniyalarida korporativ boshqaruv tizimi sifatini baholashning yondashuvlari.....	31
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	41
IIBOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KOMPANIYALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI SIFATINI BAHOLASHNING TAHLILI.	43
2.1§ Kompaniyalarni boshqarish sifatini baholashga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	43
2.2§ Korporativ boshqaruv sifatini baholash usullarining samaradorligi va uni aniqlash.....	54
2.3§ Kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishning ekonometrik modeli va uni shakllantirish.....	70
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	81
III BOB KOMPANIYALARDA KORPORATIV BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	83
3.1§ Korporativ boshqaruvning kompaniyani boshqarish sifatiga ta’siri darajasini aniqlash.....	83
3.2§ Korporativ boshqaruv tarkibiy elementlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.....	93
3.3§ Korxonalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish uslubiyatini takomillashtirish.....	105
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	116
XULOSA.....	118
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	121

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiya va raqobat jarayonlarining kuchayishi milliy iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligiga bo‘lgan talabni kuchaytirib, ayniqsa korporativ boshqaruv tuzilmalariga ega korxonalar faoliyatida sifat o‘zgarishlarini taqozo etmoqda. “Yirik kompaniyalar ko‘pincha, korporativ boshqaruv masalalariga yetarlicha e‘tibor berilmasligi sabab ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibida buzilishlar ro‘y berishi hamda ularning raqobat darajasining pasayishiga olib keluvchi holatlarga duch keladilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kompaniyada korporativ boshqaruv samarali tizimining mavjudligi aksariyat hollarda investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish uchun zamin yaratadi”¹. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirish va takomillashtirish masalalari tadqiqiga e‘tibor kuchayib bormoqda.

Jahonda yirik korporativ tuzilmalar iqtisodiy samaradorligining namoyon bo‘lishi sharoitida korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalariga yo‘naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Korxonalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini belgilovchi omillar, sifatni baholash, korporativ boshqaruv samaradorligini va jozibadorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, boshqaruv tizimi sifatini oshirishga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, mazkur jarayonlarga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish kabi muammolar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda strategik islohotlar sharoitida xususiy mulkchilikni yanada rivojlantirishga urg‘u berilmoqda. Korporativ tuzilmalarda kuzatuv kengashlari, umumiy yig‘ilishlari, taftish komissiyalarining rolini oshirish, minoritar aksiyadorlarning boshqaruv jarayonidagi ishtirokini ta‘minlash orqali korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga

¹Дементьева А.Г. Модели корпоративного управления: опыт зарубежных стран и России // Право и управление. XXI век. - http://pravo.mgimo.ru/sites/default/files/pdf/012_upravlenie_dementevaag.pdf

osHIRILMOQDA. Korxonalarni boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid: “Korxonalar o‘z vazifalarini to‘liq bajarishi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlantirishga ko‘maklashish imkonini bermaydigan qator muammolar mavjudligi, xususan, korporativ boshqaruvning shaffof emasligi”² va korporativ boshqaruvga oid aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv amaliyotiga doir tajribalarni ilmiy-amaliy tahlil qilish asosida eng ilg‘or yutuqlarni keng tatbiq qilish, boshqaruv organlari faoliyatini qayta tashkil etish bilan birga, ilg‘or xorijiy va milliy tajribani umumlashtirish asosida korporativ boshqaruv tizimi diagnostikasini sifatli tashkil etish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida qo‘llanmalar va ichki korporativ hujjatlar ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”³ gi, 2022-yil 8 apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”⁴gi farmonlari, 2021 yil 20 oktyabrdagi PQ-5262-son “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵ gi, 2017- yil 12 apreldagi PQ-2884-son “O‘z kimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁶ gi, 2016- yil 17 oktyabrdagi PQ-2635-son “Davlat ulushi ustuvor bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷gi, O‘zbekiston Respublikasi

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish natijadorligi va bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/3>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” haqidagi farmoni

⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi inavbatdagi islohotlar to‘g‘risidagi 101- sonli farmoni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 oktyabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5262-sonli qarori.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 12 apreldagi “O‘z kimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2884-sonli qarori

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ulushi ustuvor bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi , 2016- yil 17 oktyabrdagi PQ-2635-sonli qarori

Prezidentning 2015-yil 21 dekabrda «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»⁸ gi PQ-2454-son qarorining bajarilishi haqida”gi qarori va ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishning I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korporativ boshqaruv sifatini oshirishning metodologik asoslari: A.Berle, G.Means, R.H.Coase, E.M.Jr.Dodd, R.Freeman, Edward, M.C.Jensen, W.H.Meckling, R.S.Eells, A.Cadbury, R.Monks, N.Minow, A.Shleifer, R.W.Vishny, K.John, L.W.Senbet, G.Crystal, D.M.Salvioni, F.Gennari, G.Carati, A.Tourani, R.J.Gilson, T.Khanna, J.Kogan, K.Palepu, M.Martynova, L.Renneboog, W.F.Griffin, D.P.Jendrzejek, C.M.Forrester va C.S.Ferber singari xorij iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida o‘rganilgan⁹.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21 dekabrda «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi, PQ-2454-sonli qarori.

⁹Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.; Coase R.H. The Nature of the Firm // *Economica*. - November 1937. - Vol. 4, No.16. - P. 386-405; Dodd E.M.Jr. For Whom Are Corporate Managers Trustees? // *Harvard Law Review*. – 1932. – Vol.45, No.7. – P.1145-1163.; Freeman R. Edward. *Strategic Management: A stakeholder approach*. – Boston: Pitman, 1984; Jensen M.C., Meckling W.H. *Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure* // *Journal of Financial Economics*. - 1976. - Vol. 3, No. 4. – P.305-360.; Eells R.S.F. *The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise*. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.; Cadbury A. *The Report of the Committee on the Financial Aspects of Corporate Governance (Cadbury Report)*. – London: Gee Publishing Ltd., 1992.; Monks R. and Minow N. *Corporate Governance*. – Cambridge, MA: Blackwell Publishers, 1995. – 576 p.; Shleifer A. and Vishny R.W. *A Survey of Corporate Governance* // *Journal of Finance*. – 1997.- No.52. - P.737-783.; John K. and Senbet L.W. *Corporate Governance and Board Effectiveness* // *Journal of Banking and Finance*. - 1998 – No.22 (4). - P.371-403.; Crystal G., 1991. *In Search of Excess: The Overcompensation of American Executives*. W.W. Norton and Company, New York.; Jensen M., 1993. *The modern industrial revolution, exit, and the failure of internal control systems*. *Journal of Finance* 48, 831-880.; Salvioni D.M.; Gennari F. *Corporate governance, sustainability and capital markets orientation*. *Int. J. Manag. Sustain.* 2014, 3, 469-483.; Carati, G.; Tourani, A. *Convergence of corporate governance systems*. *Manag. Financ.* 2000, 26, 66–83.; Gilson, R.J. *Globalizing corporate governance: Convergence in form or function*. In *Convergence and Persistence in Corporate Governance*; Gordon, J.N., Roe, M.J., Eds.; Cambridge University Press: Cambridge, UK, 2004.; Khanna, T.; Kogan, J.; Palepu, K. *Globalization and dissimilarities in corporate governance: A cross-country analysis*. *Rev. Econ. Stat.* 2006, 88, 69-90.; Martynova M. and Renneboog L. “Evidence on the international evolution and convergence of corporate governance regulations”, *Journal of Corporate Finance*, 2011. Vol. 17 No. 5, pp. 153+1-1557.; Griffin, Jr. W. F. *Fiduciary duties of officers, directors and business owners*, 2011. – p. 2. // URL: https://www.davismalm.com/wpcontent/uploads/08/Griffin_CH8_Fiduciary_Duties.pdf; Jendrzejek D.P. *What Exactly Are the Duties of a Fiduciary?* – 2011. – p. 1-2./ URL <https://www.lawmoss.com>; Forrester C.M., Ferber C.S. *Fiduciary Duties and Other Responsibilities of Corporate Directors and Officers*. RR Donnelley, 2012. P. 29.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlardan: Ye.Lapteva, R.A.Fatxutdinov, A.Bikov, V.Dolinskaya, L.Glushkova, V.Aglamazova, Z.Benevolenskaya, G.Drujinin, S.Budilin, I.Turbina va boshqalarning izlanishlari natijasida korxonada korporativ boshqaruv sifatini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish masalalari tadqiq etilgan¹⁰.

O‘zbekistonda korxonalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirishga doir ilmiy izlanishlar va innovatsion yondashuvlar iqtisodchi olimlar: Z.Ashurov, D.Suyunov, B.R.Tursunov, Sh.N.Zaynutdinov, D.N.Rahimova, M.A.Maxkamova, G.M.Ostanaqulova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan¹¹.

Yuqorida ketirilgan ilmiy ishlarda aksiyadorlik jamiyatlari, xususan kimyosanoat korxonalarida boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmi to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim

¹⁰ Лаптева Е.А Развитие методов оценки инновационного потенциала промышленных предприятий: авторефер. дис...к.э.н- Саратов, Россия.: Саратовский государственный технический университет имени Гагарина Ю.А, 2014, 32 с.; Фатхутдинов Р.А Инновационный менеджмент: учебник для вузов. 7-е изд.-СПб.: Питер 2008. 510 с.; Быков А.М. Формирование механизмов управления корпоративными образованиями с использованием современных информационных управления. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Росс. Гос. Соц. Ун. Москва 2006. С.5; Долинская В.В. Акционерное право: основные положения и тенденции. Монография. – М.: Волтерс Клувер, 2006. – 736 с; Глушкова Л.А. К вопросу о применении модели корпоративного управления в российских коммерческих банках// Банковское дело, октябрь-декабрь, №4. 2004. С.2-11.; Агламазова В.В. Концепция фидуциарных правоотношений и возможность ее применения в корпоративном праве России // URL: <https://lawfirm.ru/pr/index.php?id=4426>; Беневоленская З. Э. Фидуциарные обязательства директора компании по английскому праву // Журнал российского права № 4. – 2006. – С.130. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fidutsiarnye-obyazatelstva-direktora-kompanii-roangliyskomu-pravu>; Дружинин Г.В. Правовая природа фидуциарных отношений // exlegis Правовые исследования № 1. – 2016. – ст 26. // URL: http://exlegis.ru/ru/issue/docs/Exlegis_2016_1.pdf; Будылин С.Л. Разум и добрая совесть: обязанности директора в США, Великобритании // России «Вестник ВАС РФ». – 2013. – N 2 / URL: <https://center-bereg.ru/b2169.html>; Турбина И. А. Гражданско-правовая ответственность исполнительных органов хозяйственных обществ в РФ, ЕС и США: дисс...канд. юр. наук. // Турбина Инга Александровна. Волгоград, 2016. – с. 101.

¹¹Ashurov Z.A Aksiyadorlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.(PhD) diss.avtorefer. – TDIU, 2019., 25 b.; Suyunov D.X Biznes muhitining rivojlanishiga korporativ boshqaruv mexanizmini joriy etishni takomillashtirish. i.f.D ... diss. –T., O‘z.Res.Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi, 2008.; D.X.Suyunov, B.R.Tursunov Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samadorligini oshirish. Central Asian Academic journal ISSN: 2181-2489 of SCIENTIFIC RESEARCH VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022.; Zaynutdinov Sh.N., Rahimova D.N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b. 21.; Maxkamova M.A. Aksionerlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. "Korporativ boshqaruv nazariya va amaliyot" ilmiy maqolalar to‘plami (respublika ilmiy seminari materiallari).23- yanvar 2019- yil.36 bet.; Ostanaqulova G.M. va b. O‘zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning milliy modelini rivojlantirish istiqbollari/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.(ilmiy elektron jurnal) №6. Aprel, 2013 y.

muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-amaliy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini yanada oshirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari :

kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish;

korporativ boshqaruv sifatini oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qilish, baholash natijalariga asosan, qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqish;

kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifati ko‘rsatkichlarini asoslash hamda tahlil qilish asosida xulosalar ishlab chiqish;

kompaniyalarda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullarini tadqiq etish va “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatini baholash;

kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishning ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va uni keng tatbiq etish jihatlarini yoritish;

kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirish va ilmiy uslubiy-jihatdan takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini kompaniyalar faoliyatida korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuvlar, monografik kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, ekspert baholash, konstruktiv baholash, bashoratlash va boshqa iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “korporativ boshqaruv” tushunchasining

mazmunidan kelib chiqib, korporativ tuzilmaning manfaatlari hamda vakolatlari doirasida tashkilot faoliyatini boshqarish va nazorat qilishdan iborat bo'lgan boshqaruvning bir ko'rinishi, ichki boshqaruv sifatida korporativ tuzilmalarning amaldagi mavjud qonunlar, qonunosti me'yorlariga amal qilgan holda qo'yilgan maqsadlariga erishishi uchun samarali faoliyat tizimi jihatidan takomillashtirilgan;

“O'z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruv tizimida korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish ($KQ=1,77$), aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tuzilmasining muvofiqligi ($TM=1,5$), korxonada faoliyati axborot shaffofligi ($ASH=1,25$), moliyaviy natijalar ($MN=1,2$) bo'yicha me'yorlarning maqbul nisbatini ta'minlash asosida korporativ boshqaruvning sifatini oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv sifatini baholash tizimida kompaniyalar tarkibida innovatsion xarajatlarni qo'llash algoritmi asosida 2030-yilga qadar prognoz parametrlari asoslangan;

“O'z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2027-yilga qadar asosiy faoliyat ko'rsatkichlari prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmi takomillashtirilgan;

korporativ boshqaruv tizimida subyektlarning manfaatlarini balanslashtirish taklifi ilmiy asoslangan;

korporativ boshqaruv sifatini baholash tizimida kompaniyalar tarkibida innovatsion xarajatlarni qo'llash algoritmi bo'yicha taklifi ishlab chiqilgan;

kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan xorij tajribasini O'zbekiston kompaniyalari faoliyatida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning-rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan

tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika va ekonometrika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan korporativ boshqaruvning ahamiyati, kompaniya boshqaruvidagi shaffoflik, boshqaruvdagi istiqbolli yo‘nalishlarni tatbiq etish masalalariga doir maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmini shakllantirishda kompleks dasturlar uchun uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan mahalliy hududlarda, kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimlari sifatini oshirish, faoliyat samaradorligini oshirishda uslubiy ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarni, yo‘l xaritalari majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, ayrim ilmiy xulosalaridan iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida “Korporativ boshqaruv”, “Korporativ strategiya”, “Korporativ madaniyat” kabi fanlardan o‘quv-uslubiy majmualar va dasturlarni ishlab chiqishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmini shakllantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korporativ boshqaruv” tushunchasining mazmuni korporativ tuzilmaning manfaatlari va vakolatlari doirasida tashkilot faoliyatini boshqarish va nazorat qilishdan iborat bo‘lgan boshqaruvning bir ko‘rinishi, ichki boshqaruv sifatida korporativ tuzilmalarning amaldagi mavjud qonunlar, qonunosti me‘yorlariga amal qilgan holda qo‘yilgan maqsadlariga erishishi uchun samarali faoliyat tizimi jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Portfel menejment” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat

iqtisodiyot universiteti rektorining 2024- yil 29- yanvardagi 21-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ichki boshqaruv sifatida korporativ tuzilmalarning amaldagi mavjud qonunlar, qonunosti me’yorlariga amal qilgan holda qo’yilgan maqsadlariga erishishi uchun samarali faoliyat tizimi jihatidan takomillashtirilgan “korporativ boshqaruv” tushunchasining mazmuni yuzasidan nazariy bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimida korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish ($KQ=1,77$), aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasining muvofiqligi ($TM=1,5$), korxon faoliyati axborot shaffofligi ($ASH=1,25$), moliyaviy natijalar ($MN=1,2$) dan “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatida “Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023 yil 7 iyuldagi 12-1915-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibidagi kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatiga korporativ subyektlarning nizolarini hal qilish vositalari va mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

O‘zbekistonda korporativ boshqaruv sifatini baholashda kompaniyalar tarkibida innovatsion xarajatlarni qo‘llash algoritmi asosida 2030 yilga qadar asoslangan prognoz parametrlaridan “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatida “Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023 yil 7 iyuldagi 12-1915-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq muddatli istiqbolda korporativ boshqaruv sifatini baholash tizimida kompaniyalar tarkibida innovatsion xarajatlarni kamaytirib moliyaviy jihatdan barqarorlikka erishish imkoniyatlarini baholash imkonini bergan;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning o‘zaro ta’sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari prognozidan “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatida “Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan

(“O‘z kimyosanoat” AJning 2023-yil 7-iyuldagi 12-1915-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq muddatli istiqbolda korporativ boshqaruv sifatini baholash tizimini takomillashtirish orqali korporativ boshqaruv tizimida subyektlarning manfaatlarini balanslashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.